



TADBIRKORLIK O'YINLARI - AKADEMIZMDAN PROFESSIONALIZMGA O'TISHNING MUHIM OMILI

Mutalov Abduazim -
“ISFT” Instituti professori

***Annotatsiya:** Maqolada oliy o'quv yurtlari talabalari bo'lajak ish joylariga borgach tezda o'z ish joylariga moslashib ketaolishlari maqsadida ularni oliygoxda o'qish jarayonida nafaqat ixtisoslik va boshqa nazariy bilimlarga o'qitish (akademizm), balki shu bilan birga professionalismga uyg'unlashtirib o'qitishning keyinchalik katta samara berishi ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik o'yini, stsenary, soliqlar, akademizm, professionalism, foyda.*

KIRISH

Oliy o'quv yurtlari talabalari bo'lajak ish joylariga borgach tezda o'z ish joylariga moslashib ketaolishlari maqsadida ularni oliygoxda o'qish jarayonida nafaqat ixtisoslik va boshqa nazariy bilimlarga o'qitish (akademizm), balki shu bilan birga, iloji boricha bo'lajak ish joylariga ishlab chiqarish va diplomoldi amaliyotlarini o'tash uchun yuborish va ayniqsa, o'quv jarayonida korhona va tashkilotlar faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni korhonaning o'sha paytdagi konkret sharoitidan kelib chiqib yechishga, chuqur iqtisodiy tahlil qilish yo'li bilan aniq va samarali yechimlarni qidirib topish, ularning eng samarali yo'llarini tanlab, ishlab chiqarishga tatbiq etishni o'rgatuvchi tadbirkorlik o'yinlarini o'ynashni ko'zda tutish lozim, yangi zamonaviy o'quv rejalari va dasturlari malakali mutahassislarni tayyorlashda akademizm bilan birga professionalism ko'nikmalarini ham singdirib borishni taqozo etadi. Faqat shundagina biz oliy o'quv yurtini bitirib kelgan yosh mutahassisning ho'jalik



yurituvchi subyektning ish faoliyatiga tezda katta qiyinchiliklarsiz integratsiyalashib ketishini ta'minlashimiz mumkin.

Tahlil

Mamlakatimiz iqtisodiyotining harturli soha va tarmoqlari uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan malakali oliy ma'lumotli yosh mutahassislarni tayyorlash sohasida akdemizm bilan professionalismni o'zaro uyg'unlashtirib o'qitishni ta'minlashda o'quv jarayonida turli hil puhta ishlangan stsenariylar asosida tadbirkorlik o'yinlarini o'ynashning ro'li ayniqsa beqiyosdir, chunki tadbirkorlik o'yini ho'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni subyektning shu davrdagi konkret sharoitlaridan kelib chiqib muvaffaqiyatli echish imkonini beruvchi chora-tadbirlarni qo'llashni, chuqur moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish yo'li bilan konkret choralar va yechimlarni qidirib topish, ularning eng samarali yo'llarini tanlab, ho'jalik yurituvchi subyektning amaliy faoliyatiga joriy qilishni o'rgatuvchi o'qitishning progressiv texnologiyasining eng samarali yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu maqolada misol tariqasida **“ISFT” Instituti** professori A. Mutalov tomonidan “Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik o'yini stsenariysi asosida TTESIning “Buxgalteriya hisobi va audit” mutahassisi talabalari bilan o'ynalgan tadbirkorlik o'yini bilan tanishtirib o'tmoqchimiz.

Tadbirkorlik o'yinida stsenariyga to'rtta turli xil maqomdagi shartli ravishda "A", "B", "C" va "D" deb nomlangan korhonalarning har biriga to'rttagacha talaba korhoning soliq masalalari bilan shug'ullanuvchi buxgalterlar sifatida biriktirib chiqildi.

Har bir korhona bo'yicha:

- ishlovchilar soni;



- o'rtacha oylik ish xaqi;
- bank xizmatlari uchun foiz to'lovlari;
- lizing uchun to'lanmay qolgan qarzlar;
- mol-mulk solig'i bo'yicha to'lanmay qolgan qarz miqdori;
- 1 dekabr holatiga korhona hisob raqamidagi pul qoldig'i;
- kelib tushgan pullar;
- sotilgan tovarlar qiymati;
- xom ash'yoga to'langan pul;
- hizmat safariga to'langan pul;
- boshqa harjatlar bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilindi.

Shundan so'ng aniqlanishi lozim bo'lgan quyidagi savollar qo'yildi:

- har bir korhona bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq turlari;
- soliqqa qayta tortiladigan to'lovlar miqdori;
- soliqdan imtiyozlar;
- soliq solish bazasi;
- soliq stavkasi;
- har bir soliq turi bo'yicha byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan pul miqdori;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning umumiy miqdori;
- oilik moliyaviy natijalar:
- foyda;



- zarar kabilarni aniqlash topshirig'i berildi.

O'yin davomida korhonalar to'laidigan soliq turlari ularning ichtisoslashuviga, ishlovchilar soniga, ishlovchilar tarkibiga (nogironlar bor-yo'qligi)ga, Nizom jamgarmasi miqdori va tarkibiga, berilgan imtiyozlarga bog'liqligiga etibor berishlari lozimligi haqida ogohlantirildi. Misol uchun, odamlar soniga qarab korhonalar kichik, o'rta yoki yirik korhonalar kategoriyasiga kiritilishi mumkin va qat'iy belgilangan soliqni, yoki aylanmasidan soliqni yoki barcha umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari mumkinligi eslatib o'tildi.

Ishlovchilar tarkibiga qarab korhonalar soliqlarning turlarini to'lashi mumkin yoki ayrim turlaridan, bazan esa barcha turlaridan ozod qilinishi mumkin. Masalan, O'zbekistan Respublikasi ko'rlar jamiyatiga qarashli korhonada ishlovchilarning yarmi yoki undan ko'prog'ini nogironlar tashkil etsa, u korhona soliqlardan ozod etiladi.

Nizom jamg'armasining miqdori va tarkibiga qarab korxona qo'shma yoki oddiy korxona sanalishi mumkin. Masalan, qo'shma korxona sanalishi uchun Nizom jamg'armasining kamida 31%ini chet el sarmoyasi tashkil etishi lozim.

Yuqoridagilardan tashqari, korhonalarda ayrim harajat turlari qayta soliqqa tortilishi mumkin. Masalan, hizmat safariga boruvchilar uchun to'langan sutkalik to'lovlar me'yoridan ortiq to'langan bo'lsa, shu ortiqcha to'langan summa shu safarga borgan hodimning hisobot davrida ishlab topgan barcha daromadining umumiy miqdori qo'shib, belgilangan tartibda jismoniy shahslar daromadidan olinadigan soliqqa tortiladi.

Tadbirkorlik o'yinining pirovardida "buhgalterlar" (talabalar) har bir korhonaning natijalarini aniqlashdi.



Shundan so'ng, boshlovchi (professor-o'qituvchi) harbir korhona talabalari bilan birgalikda har bir korhona b'o'yicha taqdim etilgan hisob-kitoblar va hulosalarni chuqqur tahlil etib, yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarni aniqlab, kerakli tuzatishlar kiritishdi va hulosa qilishdi.

Tadbirkorlik o'yini uning ishtirokchilarida juda katta qiziqish uyg'otdi. Auditoriyada huddi haqiqiy korhonalardagidek ishchanlik kayfiyati hukm surdi.

Tadbirkorlik o'yinida qatnashgan har bir "buhgalter" (talaba) oliygohni bitirib, korhonaga kelib o'z mutahassisligi bo'yicha ishga tushgach, o'zining ish joyida nima ishlar qilishini o'z ko'zi bilan ko'rdi va bevosita shu ish o'rnida mustaqil ishladi.

Xulosa

Shunday qilib, bunday tadbirkorlik o'yinlari umumta'lim va fundamental bilimlarni etarli darajada egallagan talabalarni soliq sohasida uchrashi mumkin bo'lgan muammoli holatlarni muvaffaqiyatli echishga, ularning ho'jalik yurituvchi subyektlarda mustaqil ishlab ketish ko'nikmalarining paydo bo'lishiga olib kelishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti 2020.
2. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma / U.To'lakov, O.Maxmudov. 2021 yil.
3. A. Mutalov. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan tadbirkorlik o'yini stsenariysi
4. A. Mutalov "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan tadbirkorlik o'yini stsenariysi



Axborot manbalari

5. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
6. www.mf.uz – O‘zbekiston Moliya vazirligi rasmiy sayti.
7. www.soliq.uz– O‘zbekiston Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti
8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti.